

MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANISH**Raxmatullayeva Feruzaxon Tojiraxmatovna***Toshkent shahar Shayxontohur tumani**324 umumiy orta ta'lim maktabi Matematika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Har bir darsda ta'limning aniq maqsadi belgilanishi o'qitish texnologiyasini loyihalashda muhim shartlardan biri sanaladi. Bunda fan mavzulari bo'yicha o'qitishning tashxislanuvchi maqsadi aniqlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *matematika, innovatsiya, ta'lim.*

Darhaqiqat, har qanday fan o'zining paydo bo'lgan vaqtdan boshlab katta bilimlar hajmini to'plagan va u yuqori tezlikda boyitib bormoqda. O'qitish faqat zaruriy axborotlarinigina tanlab olish va o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatlariga mos holda ular hajmini miqdoriy o'lchamga keltirish zarur. Har qanday fan bosqichma-bosqich o'rganish asosida rivojlanib boradi. Rivojlanishning uzluksiz jarayoni turli fanlarda turlicha, hatto bir fan bo'limlari o'rtasida ham notekis kechadi. Shu bois o'quv mavzulari bo'yicha maqsadni aniq belgilash uchun abstraktsiya pog'onalari va unga mos o'quv unsurini bayon qilish foydalanish maqsadga muvofiq.

O'qituvchilarning matematika fani asoslarini o'qitishda yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

Matematik tayyorgarlikda didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Biroq bu o'yinlar, birinchidan, mantiqiy va matematik mazmun bilan boyitilgan bo'lmog'i, ikkinchidan, ular mashg'ulotning o'zida emas, balki undan oldin yoki keyin o'tkazilishi lozim. Didaktik o'yin ta'lim beruvchi usul hisoblanadi. Bu usul o'quvchilarning o'z maqsadlariga erishishlariga, o'tilgan mavzularni chuqurlashtirishga va yangi mavzuni mustahkamlashga xizmat qiladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan aniq maqsad va o'quvchilar bilimini topshiriq orqali mustahkamlash vazifa qilib olinadi. Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadning bir qismini tashkil qiladi. Didaktik o'yinlar o'quvchilar bilimini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilarda o'zaro ahillik, do'stlik, chaqqonlik va mehnatsevarlikni shakllantiradi. Bundan tashqari didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilarda mustaqil, erkin fikrlash qobiliyatlari rivojlanib, vaqtni tejay bilish, xislatlari ham tarbiyalanadi. Didaktik material: suratlar, cho'tlar, har bir bolaga beriladigan sanoq material: geometrik shakllar, sanoq cho'plar, qo'lda yasalgan buyumlar, kartondan yasalgan shakllar, jadval va chizmalar solingan konvertlar va hokazo.

Matematika darslarida o'quvchilar faol qatnashadilar, misol va masalalarni to'g'ri yechadilar, ammo nazorat ishiga kelganda ko'proq xatolarga yo'l qo'yib, "3" baho oladigan o'quvchilar ham yo'q emas. Bunday holat ayrim o'quvchilarda tez-tez takrorlanadi. Buning sababi ko'pchilik o'quvchilar darslikda berilgan matematik qoidalarni yod ololmaydilar.

O‘quvchilar qoidani kitobga qarab oddiy yodlashdan ko‘ra, turli xil qiziqarli o‘yinlar asosida o‘zlari bilmagan holda yodlab oladilar. Chunki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘yinlarni diqqat bilan kuzatib, berilib bajaradi. O‘yinlar bolalarda mas‘uliyatni his etish, o‘z fikrini aniq ayta olish, odob-axloqli, rostgo‘ylik va tadbirkorlik kabi sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. O‘yinda ishtirok etayotgan o‘quvchilarda esa o‘ziga bo‘lgan ishonch shakllanadi.

Matematika darslaridagi o‘yinlar orqali bola atrofmuhit, tabiat hodisalari, o‘simliklar va hayvonot dunyosi bilan tanishadi. Qolaversa, o‘yin bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishida alohida o‘rin egallab, bilimini charxlaydi, faolligini oshiradi.

Didaktik o‘yin “Narvoncha”.

Didaktik topshiriq: birinchi o‘nlik ichida qo‘shish va ayirish jadvalini yaxshilab bilib olish. ”Narvoncha”dan tezroq yugurib tushishga intilish lozim bo‘ladi. Buning uchun esa narvonchaga yozilgan misollarni yechib, bir pog‘onadan pastga tushib borilaveradi.

Matematika darslarida didaktik o‘yinlardan, matematikaga oid she‘rlardan foydalanish o‘quvchilar zihnini o‘stirish, tez hisoblash ko‘nikmalarini oshishiga xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

Jumaev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2004.-50b.

Saidov H. Boshlang‘ich ta‘lim jurnali. Xalq ta‘limi-Toshkent 2014.-№10-B14-15